

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jsru>**FEATURES OF TRANSLATION OF SOCIAL AND POLITICAL PHRASEOLOGICAL UNITS****Iskandar Khalilov***2nd-year Master's student in Linguistics**Oriental university**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: phraseological unit, written translation, oral translation, alternative translation, literal translation, descriptive translation, political metaphor.

Received: 03.04.25**Accepted:** 05.04.25**Published:** 07.04.25

Abstract: As is known, socio-political phraseology is currently the richest layer of modern phraseology. The form and method of translating a selected socio-political text are among the main issues of linguistics and translation studies. The article examines examples of translating socio-political phraseological units in Arabic.

IJTIMOYIY - SIYOSIY FRAZELOGIZMLARNI TARJIMA QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**Iskandar Xalilov***Oriental universiteti**Lingvistika mutaxassisligi 2-kurs magistranti**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: frazeologizm, yozma tarjima, og'zaki tarjima, muqobil tarjima, so'zma - so'z tarjima, tavsifli tarjima, siyosiy metafora.

Annotatsiya: Ma'lumki, hozirgi vaqtda ijtimoiy-siyosiy frazeologiya zamonaviy frazeologiyaning eng boy qatlami hisoblanadi. Tanlab olingan ijtimoiy-siyosiy matnni qaysi usulda tarjima qilish shakli va uslubi tilshunoslik va tarjimashunoslikning asosiy masalalaridan biridir. Maqolada arab tilidagi ijtimoiy - siyosiy frazeologizmlarni tarjima qilish masallari ko'rib chiqiladi.

ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ**Искандар Халилов***Магистрант 2-го курса по специальности "Лингвистика"**Восточный университет*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: фразеологическая единица, письменный перевод, устный перевод, альтернативный перевод, дословный перевод, описательный перевод, политическая метафора.

Аннотация: Как известно, общественно-политическая фразеология в настоящее время является наиболее богатым пластом современной фразеологии. Форма и метод перевода избранного общественно-политического текста являются одними из основных вопросов лингвистики и переводоведения. В статье рассматриваются примеры перевода общественно-политических фразеологизмов в арабском языке.

Ijtimoiy – siyosiy terminologiya sohasida frazeologiyaning oʻrni kattadir. Arab tilida mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bogʻliq frazeologizmlar juda koʻp qoʻllaniladi. Bularga ijtimoiy-siyosiy hayot hodisalarining terminologik nomlari, siyosatchilar tomonidan ishlatiladigan anʼanaviy frazeologik birliklar, shuningdek, muayyan siyosatga tegishli yoki uning asosiy urgʻularini oʻzida jamlagan maxsus soʻzlar va iboralar kiradi.

Frazeologiya (frazeologik birliklar) – semantik va intonatsion birlikka ega boʻlgan, leksik jihatdan boʻlinmas, barqaror soʻz birikmalarining umumiy belgilaridir.

Frazeologik birliklar maʼlum bir sohaga biriktirilgan boʻlib, ularni din, iqtisod, siyosat bilan bogʻliq frazeologik birliklar kabi guruhlariga ajratish mumkin. Hozirgi vaqtda ijtimoiy-siyosiy frazeologiya zamonaviy frazeologiyaning eng boy qatlami hisoblanadi.

Bundan tashqari shuni koʻrsatib oʻtish joizki, soʻnggi paytda turli tillarga alohida leksik birliklar yoki terminlarning emas, balki butun bir boshli soʻz birikmalari, aniqrogʻi, frazeologizmlarning faol kirib borish jarayoni kuzatilmoqda. Koʻpgina tillar chet tilidan oʻzlashgan frazeologizmlarga boy. Misol tariqasida, arab tiliga ham, oʻzbek tiliga ham kirib borgan siyosiy diskursdagi ayrim birikmalarni koʻrsatamiz.

sariq matbuot – الصحافة / الفضائح مجلات / الفضائح جرائد الصفراء

siyosiy oshxona – السياسي المطبخ

bashinchi kolonna – الخامس الطابور

yashil dunyo – [4:34] الضوء الأخضر

Soʻnggi paytlarda ijtimoiy-siyosiy frazeologiya koʻplab mamlakatlarda tadqiqot mavzusiga aylandi, biroq arab tilining ijtimoi-siyosiy frazeologiyasi arab siyosiy nutqining kam oʻrganilgan qatlamidir.

Har qanday ijtimoiy-siyosiy frazeologiya sohasiga qoʻl urgan tadqiqotchi, avvalambor, arab tilining ijtimoiy - siyosiy frazeologiyasining xususiyatlarini gazeta maqolalari, zamonaviy ommaviy axborot vositalari va BMT soʻz birikmalarining misollarida oʻrganish; ijtimoiy - siyosiy

frazelogiyani ularning janrlariga ko'ra tasniflash; frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilishning xususiyatlarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi [2:130].

Eng birinchi navbatda, tanlab olingan ijtimoiy-siyosiy matnni qaysi usulda tarjima qilish shakli ham asosiy ilk qadamlardan biri hisoblanadi. Rasmiylashtirish va qabul qilishga ko'ra, ijtimoiy-siyosiy yoki umumiy tarjima:

- ko'rib yozma (yozma matnning yozma tarjimasi);
- ko'rib og'zaki (yozma matnning og'zaki tarjimasi);
- tinglab og'zaki tarjima;
- tinglab yozma tarjima kabi turlarga bo'linadi.

Tarjimaning bunday turlari ustida ishlashda ko'rib yozma tarjimadan boshlash maqsadga muvofiq. Keyin esa tayyorgarlik bilan yoki tayyorgarliksiz ko'rib og'zaki tarjimaga, eshitib og'zaki tarjimaga o'tish kerak. Bu bilan ikki taraflama, bir taraflama tarjima, xat boshi jumlati, izchil tarjima va qaydli tarjima ustida mashq qilib hamda ta'limning texnik vositalarini jalb qilgan holda rasmiylashtirish va qabul qilishga ko'ra tarjimaning to'rtinchi turi – chiqish, bayonot, xabarlarni eshitib yozma tarjimasiga o'tgan ma'qul.

Rasmiy-ishchi hujjatlar birinchidan, mantiqiyli va bayon etish ohangining rasmiyligi, bir oz tantanavor uslubi bilan farqlanadi. Ikkinchidan, ularda ma'lum siyosiy-huquqiy ko'rsatmalar berilganligi tufayli aniq belgilangan huquqiy xarakterga ega bo'lib, fikr buyruq-amriy usulda bayon etiladi. Ko'rsatilgan tipdagi hujjatlar doim ekspertlar tomonidan o'rganib boriladi, nashrda va ilmiy tadqiqotlarda sitata keltiriladi hamda qisman yuridik xususiyatga ega bo'ladi.

Shu tufayli tarjimada ushbu tipdagi matnlarning uslubiga ham, terminshunosligiga ham katta e'tibor berish lozim bo'ladi. Ushbu hujjatlarning terminshunosligi o'zining standartligi va qolipliligi bilan ajralib turadi. Uni bilmasdan turib tarjimon muvofiq hujjatlar matnining adekvat, rasmiy tarjimasiga erisha olmaydi.

أسلحة تمتلك دولة so'z birikmasini "yadro mamlakati" yoki "yadro quroliga ega davlat" (deb tarjima qilish zinhor befarq emas. Dunyo yuzini ko'rgan ko'pgina hujjat, shuningdek maxsus lug'at va glossariylarda rasmiy mustahkam o'rnini topgan termin va terminologiya iboralari o'zgaras ko'rinishda matndan matnga o'tib boraveradilar. Tarjimonning u yoki bu sabablarga ko'ra bu turdagi hujjatlar terminologiyasi tarjima amaliyotidan chetlashga urinishi shaxsiy interpretatsiya ahamiyatini behuda kuchaytirishi mumkin. Va materialni bu bilan u yoki bu masala bo'yicha mavjud ta'rif bilan ixtilofga olib kelishi mumkin [1:103].

Shuni yodda tutish lozimki, tarjima amaliyotida o'nashib qolgan xalqaro siyosiy-diplomatik terminologiya bir kunda paydo bo'lmagan, balki bu terminlar ortida u yoki bu bahsli terminlar yuzasidan o'zaro kelishish maqsadida talay vaqt va kuch sarf etgan diplomatlarning yillab, boringki o'n yillab olib borgan shiddatli kurashi turibdi.

Ikkinchi tomondan, agar hujjatning mazmuni, g'oyasi shuni talab esa, tarjimon yangilikni taklif etishdan qo'rqmasligi kerak. Tabiiyki, har bir muayyan vaziyatda u yoki boshqa variantni tanlash kontekstga bog'liq bo'ladi.

O'zbek siyosatchilari keng qo'llaydigan tamoyil, aqida, naql, maqollar tarjimasiga kelsak, frazeologik iboralar tarjimasida amaliyotda juda ehtiyotkorlik va zehnililikni talab qiladi.

Frazeologizmlar (maqol, matal va idiomalar)ning ma'nosi kontekst ichida ochiladi. Binobarin, muayyan iboraning ma'nosini ochish uchun uni kontekst ichida olib qarash lozim. To'g'ri, ikki yoki bir nechta tilda ham shaklan, ham mazmunan, ham ma'noviy tarafdin aynan muvofiq keladigan mutlaq ekvi-valentlar ham topiladi. Biroq bunday mutlaq ekvivalentlar soni kam. Aksariyat hollarda tarjimon har bir maqol, matal yoki idiomaga, asarda tasvirlanayotgan voqealar mazmuni, obekt, milliy muhit va uslub xususiyatiga ko'ra, o'z tilidan muqobil yoki monand birikmalar topib qo'yadi, yoki ularni so'zma-so'z tarjima qiladi. Shunga ko'ra, ayni bir xil maqol yoki idiomani ham bir qancha o'rinlarda, ma'noga qarab, har xil o'girish mumkin. Binobarin, har qanday hollar uchun bab-baravar muvofiq keladigan tayyor retsept berish amri mahol.

Maqol, matal va idiomalar tarjimasida uch prinsip hukm suradi:

asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish;

asar o'girilayotgan tildan monand muqobil variant topib qo'yish;

frazeologizmi aynan, so'zma-so'z tarjima qilish.

Ijtimoiy-siyosiy frazeologizmlarning ayrimlarini aynan arab tilidagi shakli bilan birga ko'rib chiqamiz:

ijtimoiy integratsiya - الاجتماعي الإدماج

demografik portlash - الإنجاب طفرة

hududiy dengiz - إقليمي بحر

siyosat va amaliyot - والممارسة السياسات

“yashil quti” siyosati - الأخضر الصندوق سياسات , الخضراء الحزمة سياسات

ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkich - اقتصادي مؤشر

moliyaviy-iqtisodiy sektor - والاقتصاد المالية فرع

ijtimoiy marketing - اجتماعي تسويق

ijtimoiy buxgalteriya - الاجتماعية المحاسبة

“uchinchi dunyo” tarmog'i - الثالث العالم شبكة

Ijtimoiy - siyosiy frazeologik birliklar, odatda, asosiy siyosiy tushunchalarni aks ettiruvchi ijtimoiy - siyosiy sohaning kalit so'zlari atrofida shakllanadi. Keling, ba'zi kalit so'zlarni ko'rib chiqaylik:

حكم

sovet hokimiyati – السوفيياتي الحكم

hokimiyatga kelish – الحكم إلي وصل

sudlanuvchining kelmaganligi sababli da'vogar foydasiga sud qarori – غيابي حكم

حزب

siyosiy partiya – سياسي حزب

ishchi partiya – العمال حزب

مستوى

nazorat darajasi – المراقبة مستوى

qimmatli qog'ozlar darajasi – المخزونات مستوى

الحيز

siyosiy soha – سياساتي حيز

gumanitar makon – الإنساني الحيز

umumiy axborot makoni – المشترك المعلومات حيز

Ko'rib turganimizdek, bu so'zlar atrofida, asosiy tarkibiy qismlar atrofida bo'lgani kabi, ko'plab frazeologik birliklar hosil bo'ladi. Siyosiy tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy siyosiy muloqotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri uning metaforikligidir [5:77].

Metafora – mos keladigan hodisalarning o'xshashligi asosida so'zlar va iboralarni majoziy ma'noda ishlatishdan iborat, eng keng tarqalgan va muhim o'xshatish shakli. Metafora taqqoslashni o'z ichiga oladi, lekin uni maxsus tarzda ifodalaydi.

Ko'pgina siyosiy metafora siyosatchilarning nutqida va ommaviy axborot vositalarida foydalanadi va bir necha bor takrorlanadi, bu esa frazeologiya tarkibida siyosiy metaforani ko'rib chiqishga imkon beradi. Masalan, المشكلة مصدر (muammoning manbai).

A.P. Chudinovning ma'lumotlariga ko'ra, ko'pincha zamonaviy siyosatchilar "jinoyat", "urush", "kasallik" kabi so'zlardan foydalanib, boshlang'ich konseptual sohalariga yaqin metaforaga aylantirishadi:

sovuq urush – باردة حرب

axborot urushi – المعلوماتية الحرب

professional kasallik – مهني مرض

A.P. Chudinovning fikriga ko'ra, "teatr", "sirk", "o'yin" tushunchalari bilan siyosiy metafora hali ham siyosiy nutqda faol qo'llanilmoqda [3:32]. Misol uchun:

siyosiy sahna – السياسي المشهد

siyosiy o'yin – السياسية الألعاب

siyosiy drama – السياسية الدراما

o'yin nazariyasi – المباريات نظرية

Ijtimoiy - siyosiy frazeologiya ikki guruhga bo'linadi: a) frazeologik birlik-terminlar va b) terminologik xarakterga ega bo'lmagan frazeologik birliklar.

Frazeologik birlik-terminlar mintaqaning ijtimoiy - siyosiy hayotining asl haqiqatlarini anglatadi. Masalan: prezident respublikasi – رئاسة جمهورية.

Terminologik xarakterga ega bo'lmagan frazeologik birliklar esa ijtimoiy - siyosiy kurashning asosiy tamoyillari va xususiyatlarining shakllanishini ifodalaydi. Terminologik xarakterga ega bo'lmagan frazeologik birlik – bu odamlar tomonidan eslab qolingani va muayyan hodisa yoki siyosatchi bilan bog'liq bo'lgan iboralar, terminlar va aforizmlar.

Ijtimoiy - siyosiy frazeologiya murakkab, ko'p o'lchovli hodisa. Bunday frazeologiyani janrlari bir qator sabablarga ko'ra guruhlanishi mumkin: haqiqatning umumlashtirilishi tabiatiga ko'ra, siyosiy haqiqatlarga ko'ra, vazifasiga ko'ra. Ijtimoiy - siyosiy frazeologiyani janrlarini uning funksional xususiyatlariga qarab ko'rib chiqamiz.

Funksiyaga ko'ra, siyosiy frazeologiya integratsiya, yo'nalish va agonallik belgilarini o'z ichiga oladi. Agonal belgilar siyosiy faoliyatga jalb qilish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, terminologik xarakterga ega bo'lmagan frazeologik birliklar vaqt o'tishi bilan yoki ulardan foydalanish hududidagi vaziyatning o'zgarishiga qarab biroz farq qilishi mumkin. Agonal belgining o'zgarishiga misol sifatida "Arab bahori" voqealarining quyidagi shiori ko'rish mumkin: النظام إسقاط يريد الشعب (Xalq rejimni ag'darishni istaydi).

"Arab bahori" voqealarining markaziy shiori "النظام إسقاط يريد الشعب" – Xalq rejimni ag'darishni istaydi" shaklidagi shior edi. Shuni ta'kidlash kerakki, shiorda adabiy arab tili ishlatilgan, chunki butun arab dunyosida tushunilgan, keyin bu shior darhol xalqqa Yetib kelgan. Ushbu shior Tunisda paydo bo'ldi. Misrda isyonchilar bu shiorni hech qanday o'zgarishsiz ishlatishgan. Xuddi shu shior Liviya, Yaman, Bahrayn va Suriyada ishlatilgan.

Falastinda esa shior "الإقتسام إنهاء يريد الشعب" – "Xalq bo'linishni tugatishni xohlaydi" shaklida o'zgardi.

Suriyada shior hech qanday o'zgarishsiz ishlatilgan, ammo Bashar al-Assad hukmronligi davrida uning rejimining tarafdorlari jumlaning ikkinchi qismini almashtirish bilan shiordan boshqacha tarzda tarfoydalanganlar: "الاسد بشار يريد الشعب" – "Xalq Bashar al-Assadni xohlaydi".

Ko'rib turganimizdek, bu agonal belgi xalqni inqilobga jalb qilish uchun mo'ljallangan. Ushbu shiorda chaqiruvning nutq axtarlari va talablari ustunlik qiladi. Ya'ni, bu shior siyosiy harakatlar jarayonida bevosita siyosiy kurash vositasi sifatida ishlatiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, frazeologik birliklarning tarjimai sinonim, polisemiya va omonimiya kabi hodisalar tufayli alohida qiyinchilik tug'diradi.

Ijtimoiy - siyosiy frazeologiya tadqiqotlari bizga quyidagi o'zaro munosabatlarni ajratishga imkon beradi:

To'liq frazeologik muqobillar, ya'ni grammatik tuzilishning leksik tarkibiga mos keladi:

hayot darajasi – المعيشة مستوى

minalar maydoni – الغام حقل

inson xavfsizligi tarmog'i – البشري الأمن شبكة

kimyoviy urush – آيميائية حرب

Qisman frazeologik muqobillar kichik shaxsiy leksik yoki grammatik farqlarga ega. Arab va o'zbek tillarining frazeologik birliklari orasida qisman frazeologik ekvivalentlar ikki guruhga bo'linishi mumkin:

Ma'no, uslubga mos keladigan, ammo leksik tarkibda biroz farq qiladigan frazeologik birliklar: erkin bozor iqtisodiyoti – السوق اقتصاد رحا

Ma'no, uslubga mos keladigan, ammo grammatik kategoriya bilan ajralib turadigan (masalan, ism ma'nosiga ega bo'lgan raqam):

ijtimoiy siyosat – الاجتماعية السياسة

boshqaruv siyosati – الإدارة سياسة

Frazeologik analog – o'zbek tilidagi majoziy frazeologiya birligi ma'no jihatidan arabcha frazeologik birlikka o'xshash, ammo boshqa tasvirga asoslangan:

demografik portlash – الجنجاب طفرة

Tavsifli tarjima – arabcha frazeologik birlik ma'nosini o'zbek tilidagi so'zlarning erkin kombinatsiyasi bilan uzatish: sudlanuvchining kelmaganligi sababli da'vogar foydasiga sud qarori – "غيايبي حكم" [6:52].

Umuman olganda, frazeologik birliklarni tarjima qilish nazariy va amaliy qo'llanmalar va nashrlarga katta e'tibor beradi, shuningdek, tarjima qilishning turli usullari tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Акаш Б.А. Анализ перевода политического интервью с русского языка на арабский // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 2011. № 1 (24).
2. Белкин В.М. Арабская лексикология. – М.: МГУ, 1975.
3. Будаев Э.В., Чудинов А. П. Зарубежная политическая лингвистика. – М.: Наука; Флинта, 2008.
4. Muhammad Hasan. 'Ilm al-ishtiqaq nazariyyan va tatbiqiyyan. al - Qahira. Maktaba al - Adab. 2005.
5. Пантюхин Н.Я. Арабский язык: общественно-политический перевод. ISBN: 978-5-9228-1580-2. – М.: МГИМО-Университет, 2017.
6. Селезнева Г.Я. Политическая фразеология: учебно-методическое пособие по специальности 020200 / Селезнева Г.Я. – В.: 2004.